



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA NEMIS TILINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISHNING LINGVOMETODIK TIZMI

Baymanov Habibullo Abdullayevich

Toshkent amaliy fanlar universiteti f.f.f.dok.(PhD), dotsent

habibullo81@list.ru Orsg. 0009-0001-9293-928

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15449707>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- May 2025 yil

Ma'qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 17-May 2025 yil

KEY WORDS

*lingvometodik tizim, innovatsion,
axborot-kommunikatsiya*

texnologiyalari, smartfon,

smartsoat, kompetentsiya,

lingvodidaktika, digital,

lingvometodika, raqamli

*texnologiya, filologik va nofilologik
tillar.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada raqamlashtirish sharoitida nemis tilini oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning lingvometodik tizimini innovatsion, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim sifatini oshirish maqsadida talabalarining mustaqil ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish uchun jahon ta'lim standartiga mos va xos raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - smartfon va smartsoatlari kabi zich raqamli muhitga ega bo'lish hamda talaba-o'quvchilarning mazkur multimediya vositalari bilan uyg'unlashtirishga qaratiladi.

Globallashtirish sharoitida mamlakatimizning kelajagini tashabbuskor, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Nemis tili o'qitiladigan guruhlarda ta'lim mazmunini mehnat bozori, raqamlashayotgan jamiyat talablariga moslashayotgan ta'lim va zamonaviy yondashuvlarga ko'ra takomillashtirish masalasini ilmiy hal qilish dolzarblik kasb qilmoqda.

Ayniqsa, oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarining nafaqat chet tilidan, balki bilim olishlarida keng ko'lamli qilib ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi qabul qilindi. Bunda mutaxassislarni jahon arenasida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar bo'lishiga qaratilgan choralar ko'zda tutilgan kontseptsiyada o'z aksini ko'rsatish maqsad qilingan. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'limning barcha bo'g'inlari rivojiga, xususan oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish, o'quv jarayonini jahon arenasi talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviylikini ta'minlash va talabaning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bunda oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish hamda professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali ustuvor vazifalar maqsad tutilgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekistonda ta'limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o'zgartirishda ta'limni tubdan demokratlashtirish, uzluksiz ta'lim g'oyasi, mutaxassislarni tayyorlash vositasi, ta'limning globallashtirishga erishish ta'limni axborotlashtirish uni tubdan qayta o'zgartirish kabi yo'nalishlar paydo bo'lganligi yanada muhim o'rin tutdi.

Muhokama: Lingvodidaktikada nemis tilini o'qitishning nazariy va metodik masalalari salmoqli bo'lsada, toboro tadqiqot obyektiviga aylanib bormoqda. Shular qatorida nemis tilini o'qitishning ham o'ziga xos lingvodidaktik xususiyatlari mavjud. Lingvometodika va lingvodidaktikani farqlovchi belgilarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lingvodidaktika til o'qitish vositalari: o'quv adabiyotlari, ya'ni darslik va o'quv qo'llanmalarni tuzish hamda foydalanish metodikasi bilan uzviy bog'lanadi. Uning nazariy asosini tilshunoslik materialining didaktik tuzilishi, til darsliklarining tuzilishi va mazmunini o'rganish tashkil qiladi [3].

Lingvometodika – til o'rgatish metodikasi bu til o'qitish shakli, metod va usullari, vositalarini o'rganadi va til o'qitish maqsadlariga mos ta'lim mazmuni o'lchovlarini aniqlashtirish bilan shug'ullanadi. A.V.Tekuchev lingvometodika nazariyasining rivojlanishiga turtki bo'lgan dastlabki pedagog oilmlardan hisoblanadi [2, 4].

Lingvodidaktikada nemis tilining nafaqat roman-german balki turkiy tillar vakillariga o'qitilishi masalasi eng faol sohadir. Nemis tilini qardosh tillar, jumladan O'zbekistonda tahsil olayotgan filologik va nofilologik vakillariga o'qitishning lingvodidaktik xususiyatlarini tahlilga tortish nemis tilidan dars berayotgan o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi qisqa vaqt ichida shu darajada keskin avj oldiki, elektron va masofali ta'limning o'qitishdagi imkoniyatlarini hamda o'rnini ilmiy o'rganishga ulgurmasimizdan, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt kabi tushunchalar, hatto o'qituvchi vazifasini egallab olish uchun raqobatga kirishdi [5]. Natijada tajribalarini o'rganish, keng va chuqur tahlil qilish, samaradorligi bilan salbiy tomonini ham anglab olish, boshqarish muhim bo'ladi. Haqiqatan ham, raqamli ta'limning amaliy hamda nazariy masalalari, muammolari o'rganilgan xorijlik va o'zbekistonlik olimlar tadqiqotlari nemis tilini qardosh tilli guruhlarda raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning ham o'rganilishi lozim bo'lgan qirralarini aniqlashga, muammolarni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Olim N.Gruenberger raqamli ta'limning bir tomondan moslashuvchanligini, ikkinchi tomondan murakkab jarayon ekanligi e'tirof etiladi [6].

Olima o'zining, raqamli ta'lim tizimining murakkabligida kutilayotgan ijobiy natija bilan birga aksi bo'lgan natijalar berishi ham kutilishi mumkin degan fikri bizning yuqorida qayd etgan fikrimizni dalillaydi. Shuni inobatga olish muhimki, til ta'limiga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilishga oid tajribalarni, tadqiqotlarni chuqur isloh qilish taqozo qilinadi.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari R.Poel tomonidan tadqiq qilingan. Pedagog olim raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni va ahamiyati haqida e'tirof etib uning afzalliklari bilan bir qatorda elektron ta'lim o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati cheklangan aholi uchun potensial sharoit yaratishi mumkinligini alohida qayd etishadi [8].

Aytish mumkinki, raqamlashtirish ma'lum ma'noda talabalarga ma'lumotni o'rganish va qidirishda yordam beradi lekin pedagoglar talaba o'quvchilarga amaliy yoki nazariy mashg'uloti uchun raqamli resurslar tayyorlashda imkon qadar ko'proq ma'lumotlarni yoritishga intilishi tinglovchini ortiqcha toliqtirishga olib kelish holatlari kuzatiladi. Tayyorlangan slaydlar, ortiqcha ko'rgazmali materiallar bilan boyitilgan ekran dars samaradorligiga putur yetkazadi. Ma'lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma'lumotlarni o'zlashtirish sifatining pasayishiga, xatolar sonining ortib borishiga, o'rganuvchining o'zini his qilishi va sog'ligiga salbiy ta'sir qiladi [1].

Natija: So'rovnoma o'tkazilsada, universitet talabalar noutbuklariga atamalarni tarjima qilish uchun maxsus dasturlar o'rnatadi, bu darsliklar bilan ishlashni osonlashtiradi, talabalarning darslarda eng yangi texnologiyalardan foydalanish ularni qiziqarli va mazmunli qiladi degan javoblar yangrashi tabiiy holdir. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro almashinuv ta'lim dasturlarida qatnashgan talabalar duch keladigan qiyinchiliklarning aksariyati talabalarning boshqa madaniy muhitga integratsiyalashuvi bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishda muhokamaga tortiq muammolar yechimi shuni dalillaydiki, zarur axborot infratuzilmasini yaratishni, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu bilan

birga, oliy ta'limda nemis tilini guruhlarda o'qitishni raqamli muhitda tashkil qilish va o'qituvchi boshqaruvchilik faoliyatining yetarlicha o'rganilmaganligi bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni jadallashtirish, nemis tili ta'limini raqamli texnologiyalar bilan yaxlit rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy yondashuv va usullarini topishni taqozo etadi. Bunda oliy ta'limning raqamli transformatsiyasiz tasavvur yetib bo'lmaydi.

E'tirof o'rinliki, raqamlashtirish – "digital" (deutsch. "raqam") axborotni saqlash va tarqatish maqsadida raqamli texnologiyalar yordamida elektron ko'rinishga (hujjat, foto, video, audio va h.k) o'tkazish jarayoniga nisbatan qo'llaniladi [7].


O'ylaymizki, sinf va auditoriyadan tashqari ta'lim olish imkoniyatlarini kompyuter, noutbuk, planshet, smartfon telefonlar va shu kabi qurilmalar kabi orqali amalga oshirish raqamli ta'lim olish tizimini yuzaga keltiradi. Shuningdek, raqamli resurslar, raqamli ta'lim kontenti, raqamli o'qitish muhiti, o'qitishni tashkil qilishning raqamli texnologiyalari raqamli o'qitishning tarkibiy qismlari–ta'lim natijalarini baholashni raqamlashtirish uzviylikda, bir butunlikda rivojlantirilish omillarni talab etadi. Shunday ekan, raqamli konsepsiyasining amalga oshirilishi smart doskalar, planshetlar, kompyuterlar, proyektorlar kabi texnikalar bilan jihozlangan ta'lim muassasalarida internet xizmatidan foydalanishdan tashqari, munosib kontent yaratishga qodir. Bu nafaqat nemis tilini tilli guruhlarda, balki o'quv rejadagi fanlarni o'qitish jarayonida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Xulosa o'rnida aytish joizki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish maqsadida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun o'qituvchilarga talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish jarayonini tizimli ravishda o'z-o'zini nazorat qilish, jahon ta'lim standartiga mos va xos raqamli avlodning – ekranli avlodi: televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari kabi zich raqamli muhitga ega bo'lish hamda talaba-o'quvchilarning mazkur multimediya vositalari bilan uyg'unlashishi davr talabini taqozo etadi. Natijada zamonaviy raqamli universitet talabalarga va o'qituvchilarga o'qitish jarayonini va kommunikatsiyalarni tashkillashtirish, byurokratiyadan xoli avtomatlashtirilgan raqamli qayd va tahlil qilish, individual ta'lim traektoriyalarini savodli tuzish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirishga yordam beradigan qulay imkoniyatlar va xizmatlar taqdim etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Зимняя И.А. Педагогическая психология. Учебник для вузов. Изд. второе, доп., испр.

- иперераб.—М.: Издательская корпорация «Логос», 2000. — 384 с.
2. Текучева А.В. О классическом учебнике «Методика русского языка в средней школе» Русский язык в школе. 2023;84(2):24-31.
3. Hamdamov R., Taylakov N., Begimqulov U., Sayfiev J. Elektron universitet. Elektron vazirlik. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2011. 288 b.
4. Юлдашева Ш. Цифровая трансформация и перспективы обучения узбекскому языку.//IX Международный форум по педагогическому образованию IFTE 2023. – Kazan, 2023. – С. 519.
5. Brown MR, Higgins K, Hartley K. Teachers and Technology Equity TEACHING Exceptional Children, 33 (2001), pp. 32-39
6. Grünberger, Nina, Klaus Himpsl-Gutermann, Petra Szucsich, Katja Schirmer, Martin Sankofi, Klemens Frick, und Birgit Döbrentey-Hawlik. 2021
7. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 431 b.
8. Pöhl, Regula, und Daniel Schuoler. 2020. «Aus Latten und Leisten. Ordnen und aufbewahren». Werkspuren 20.4 (160): 44–5.



INNOVATIVE
ACADEMY